

ILK O‘SPIRINLARNI KASBGA YO‘NALTIRISHNING AYRIM PSIXOLOGIK MASALALARI

Raximova Mo‘minaxon Zokirjonovna

Urganch davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada ilk o‘spirinlarni kasbga yo‘naltirishning nafaqat ijtimoiy, balki psixologik muammo ekanligi, bu ikki nuqtai nazar har doim bir – birini to‘ldirib kelishligi, shuningdek, kasbga yo‘naltirishning individual psixologik xususiyatlarining imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit sozlar: kasbga yo‘naltirish, ijtimoiy muhit, psixologik ta‘sir, “Men” tabiati, kasb tanlash, faoliyat, kasbiy motiv, kasb tasavvurlari, kasbiy yo‘nalganlik, kasbiy qobiliyat.

Abstract: The article discusses the issue of orientation of adolescents to the profession, which is not only a social, but also a psychological problem, these two points of view always complement each other, as well as the possibilities of individual psychological characteristics of vocational guidance.

Key words: career orientation, social environment, psychological impact, “I” concept, career choice, activity, professional motivation, career ideas, professional orientation, professional abilities.

Kirish Ma‘lumki, mamlkatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatning u yoki bu sohalarini isloh qilishdan iborat. Ana shu islohotlarning bir yo‘nalishi yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish, ularning zamon talablari darajasida bilim olishi, shaxs sifatida kamol topishi, kasb – hunarni aniq va to‘g‘ri tanlashga, ijtimoiy hayotda muayyan statusga erishishiga ko‘maklashish va ta‘minlashdan iborat. O‘spirinlarni kasbiy yo‘nalganligi nafaqat ijtimoiy, balki psixologik muammo hamdir. Bugungi kunda kasb tanlashga turli nuqtayi nazardan qarash, ularni kasb tanlashiga ko‘maklashishga doir ko‘plab psixologlar tomonidan munosabat bildirilgan. Ularning kasb tanlashiga bir qator omillar: birinchidan, yoshlarning biror-bir kasbga yo‘naltirishda ijtimoiy muhitning roli asosiy omil sifatida qaralsa, ikkinchidan esa, individning(o‘spirinning) qiziqishlari va layoqatlari asosiy imkoniyat sifatida karalsa, uchinchidan, turli xil motivlar ta‘sir o‘tkazadi. Bu nuqtayi nazarlar har doim bir – birini to‘ldirib keladi. Aynan ilk o‘spirinlik davri hayotiy kelajagi, rejalarini tuzadigan, o‘z kelajagini yaratishga qadam qo‘ygan asosiy yosh bosqichi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'spirinlik davri 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan davr o'spirinlik davridir. O'spirinlar 8-10 sinf o'quvchilari bo'lib, ular oldida kelgusida kim bo'lish, qanday faoliyat turi bilan shug'ullanish kerak degan tashvish turadi. Bu yoshdagi bolalar o'smirlardan farq qiladi. Agar o'smirlikda o'quvchining asosiy faoliyati o'qish bo'lgan bo'lsa, yuqori sinf o'quvchilarining faoliyati o'qish, bilim olish va mehnatga tayyorlanishdan iborat bo'ladi.

O'spirinlik davrida o'quv [faoliyatining murakkablashishi](#), ularning yangi jamoada tutgan o'rni ulardan ko'p narsa talab qiladi. O'spirinlarning maktab hayotida, oilada tutgan mavqei o'zgaradi, ya'ni o'zidan kichiklarga nisbatan boshliq, tashkilotchi va tarbiyachi bo'lish talab qilinadi.

Bu davrda organlarning tarkib topishi va organizm to'qimalarining takomillashishi nihoyasiga etadi. Jismoniy rivojlanish shaxsning ba'zi bir xususiyatlarini va bundan keyingi hayotiy faoliyatini belgilashga ta'sir ko'rsatadi. Yigit va qizlarning 17-20 yoshlarida organizm normal rivojlanishiga va unga mos keladigan ish bilan band qilish maqsadga muvofiqdir. Ular organizmdagi o'zgarishlar og'irligiga va bo'yiga xos bo'lishi bilan birga o'pka, yurak, qon tomirlariga, nerv sistemasining faoliyatiga ham ta'sir etadi. O'spirinlarda yurak charchashi-xarsillash, yurakning to'xtab-to'xtab ishlashi kabi xollar asta-sekin yo'qolib boradi. Buning uchun jismoniy mehnat, aqliy faoliyat va dam olishning to'g'ri yo'lga qo'yilishi katta ahamiyatga ega. Bu davrda ularning nerv sistemasi rivojlanadi va katta kishilarning miya po'stlog'i xususiyatiga asta-sekin yaqinlashadi. Bosh miya po'stlog'ining atroflarida nerv bog'lanishlarining soni ko'payadi. O'qish va mehnat qilish natijasida bosh miya yarim sharlarida analitik va sintetik faoliyat rivojlanadi. Bu holat tashqi ta'sirni aniq ajrata oladigan xususiyatni o'stiradi. Farq qilish xarakteridagi tormozlanish vujudga keltiradi.

Ilk o'spirinlarga xos xususiyatlardan biri hayotiy rejalarining shakllanishidir. Bir tomondan hayotiy rejalar shaxs o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni umumlashtirishi va mustahkamlashi natijasida vujudga keladi. Boshqa tomondan maqsad va motivlarning qonkretlashishi jarayoni ro'y beradi. Hayotiy reja – bir vaqtning o'zida ijtimoiy va axloqiy hodisadir. Kim bo'lish (kasbiy o'zlikni anglash) va qanday bo'lish (axloqiy o'z-o'zini anglash) muammolari o'smirlik davrida farqlanmaydi.

O'smir va o'spirinlarning hayotiy rejaları tarqoq bo'lib, ularning amaliy faoliyatiga mos kelmaydi.

Yuqori sinf o'quvchilarini qiziqishlari, mayllari, intilishlari, qobiliyatlari, itse'dodlari asosida tanlagan kasblariga to'g'ri yo'naltirish o'spirinlar uchun katta hayotiy masaladir. O'smirlarga o'qituvchilar, ota-onalar jamoatchilik, o'z kasbining ustalari, murabbiylar alohida e'tibor berishlari kerak. O'rta maktabni bitirgunicha hamma o'quvchilar kasbini qat'iy tanlaydi deyish mumkin emas. Kasb – hunarga har xil munosbatlar hosil bo'lishining asosiy sababi maktabda o'qish davrida kasb tanlash bo'yicha turli xil niyatlar paydo bo'lishidir.

V. A. Krutetskiy o'spirinlarda uchraydigan motivlardan quyidagilarni alohida ifodalaydi: a) biror o'quv faniga qiziqish; b) vatanga foyda keltirish istagi (o'ziga xos psixologik xususiyatini hisobga olmagan holda); v) shaxsiy qobiliyatini ro'kach qilish; g) oilaviy an'analarga rioya etish (vorislik); d) do'stlari va o'rtoqlariga ergashish; e) ish joyi yoki o'quv yurtining uyiga yaqinligi; f) moddiy ta'minlanishining yaxshi ekani; g) o'quv yurti ko'rinishining chiroyliligi yoki unga joylashish osonligi[1].

O'spirin o'quvchilar kasbga qanday yondashadilar? Bu muammo ko'pchilikni qiziqtiradi. Kuzatishlardan, turmush tajribasidan ma'lumki, odatda ilk o'spirinlik yoshidagi o'g'il – qizlar hayotda mustaqil qadam tashlash to'g'risida aniq, asosli fikr bildirishga qiynaladilar. Shu sababli, kasb tanlash davrida oqilona va to'g'ri yo'l tutishni bilmay dovdirab yoki tavakkaliga ish tutadilar. O'zlarining imkoniyatlarini hisobga olib harakat qilishga ojiz bo'ladilar. Natijada, noxush kechinmalar, umidsizliklar, ijtimoiy sustlik holatlari vujudga keladi. Yuqori sinf o'quvchilarining ba'zilar kasb tanlashda yaqqol ko'zga tashlanib turgan namunalarga taqlid qiladilar va o'zlarida biror bir maqsadga yo'nalgan g'oyalar mavjud emas. Aynan atrofdagi xatti – harakatlarning xuddi shunday ta'siri ularda biror bir kasbni tanlab, shu borada o'quv faoliyatini amalga oshirayotgan davrda o'zi tanlagan kasbkorlikka nisbatan ikkilanishlar, umidsizliklarning kelib chiqishiga olib keladi.

Kasbga yo'naltirish – shaxsning ijtimoiy taqdirini belgilashning tarkibiy qismidir. Kasb tanlash - hayot mazmuni haqidagi o'ylari va shaxsiy "Men" tabiati bilan mos kelganda muvaffaqiyatli hisoblanadi. Tadqiqotchi D.Xodjakulova tadqiqotlarida Toshkent to'qimachilik va engil sanoat instituti talabalarida o'tkazilgan kasb tanlashga doir so'rovnomada, respondentlarning yarmi yana shu kasbni tanlashlarini ta'kidlagan va tasdiq javobini berishgan, talabalarning uchdan bir qism esa ikkilanishlarini bayon etishgan. Bundan ko'rinadiki, kasb tanlash muammosi juda

murakkab va ko‘p qirrali jarayondir. Ikkilanishlar kuzatilgan talabalarda kasbiy ustanovkalar to‘liq shakllanmaganligini kuzatishimiz mumkin[2].

Shuning uchun ham yoshlarni kasb tanlashda pedagog va ota – onalardan ularning qobiliyatlari, layoqatiga qarab, ya’ni individual xususiyatlaridan kelib chiqib kasbga yo‘naltira olishni talab qiladi. Bugungi fan texnika va ijtimoiy taraqqiyot davrida yoshlarni jamiyatni barpo etishda ishtirokini ta’minlash bugungi kun maktabini har qachongidan ham muhim vazifasidir.

Ma’lumki, kasbga yonaltirishda har bir shaxsning individual xususiyatlari, qiziqishlarini, shuningdek, jamiyatning qaysidir kasbga nisbatan ehtiyojini ta’minlash zarurligini inobatga olgan holda tanlashni taqozo etadi. Kasbga to‘g‘ri yonaltirish shaxsning hayotida to‘ri yo‘lni to‘ishga imkon beradi. O‘quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash va ularning kasb-hunarni o‘zlarining qobiliyatlariga yarasha to‘g‘ri tanlashlariga erishish uchun maktab o‘qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, perseptiv, akademik, kommunikativ kabi qobiliyatlari yuqori bo‘lishi, kasblar bilan bog‘liq fan to‘garaklarining faoliyatini rivojlantirish, maktablarda kasb – hunar to‘risidagi ma’ruzalarni tashkillash o‘z natijasini beradi. Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni kasb hunarga yo‘naltirish maktab rahbariyati bilan birgalikda maktabning amaliy psixologi, kasbga yo‘naltiruvchi mutaxassislar va o‘qituvchilar bilan birgalikda amalga oshiriladi.

MUHOKAMA

O‘quvchi-yoshlarni kasbga yo‘naltirish, ularda barqaror kasbiy ustanovkalarni shakllantirish ijtimoiy psixologiyaning tipik muammosi emas. Ma’lumki, ushbu muammo qisman umumiy psixologiyaning, asosan esa yosh davrlari, pedagogik va rivojlanish psixologiyasining muammosi hisoblanadi.

Ammo, psixologiyadagi shaxs va jamiyat o‘zaro bog‘liqligi printsipidan kelib chiqadigan bo‘lsak, kasbiy ustanovkalarning jamiyat ta’sirida va uni o‘rab turgan ijtimoiy borliqning qadriyatlari ta’sirida shakllanishini anglash qiyin emas. SHu bois ham biz yoshlardagi kasbiy motivatsiyani ham aynan shu tamoyillar asosida shaxslararo va guruhlararo munosabatlar tizimida ham nazariy, ham empirik asosda o‘rganishga qaror qildik va bu muammoni ijtimoiy psixologiyaning ham muammosi sifatida talqin etamiz. Mamlakatimizda ta’lim samaradorligini oshirish, umumta’lim maktablari bitiruvchilarining tanlangan kasblar va mutaxassisliklarni egallab olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun shart-sharoitlarni yanada kengaytirish maqsadida

ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda [3].

Kasbga yo'naltirish borasida asosan maktab psixologi faoliyat olib borib, o'quvchilarning avvalo, qaysi kasbga nisbatan qobiliyati va qiziqishlarini aniqlash maqsadida diagnostikani o'tkazish va uning statistik tahlilini aniqlash maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarning ma'lum bir kasbni tanlashida ularning individual xususiyatlari ham asosiy o'rinni egallaydi. Xususan, o'quvchilarning xarakter va temperament tiplariga xos xususiyatlari kelesakda ular tanlagan kasbkorliklarida o'zini namoyon qilishlarida muhim rolni taqozo etadi.

NATIJA

Kasbga yo'naltirish – shaxsning ijtimoiy taqdirini belgilashning tarkibiy qismidir. Kasb tanlash – hayot mazmuni haqidagi o'ylari va shaxsiy “Men” tabiati bilan mos kelganda muvaffaqiyatli hisoblanadi. Katta yoshdagi maktab o'quvchilarida biror o'quv faniga ishtiyoq natijasida ularda har xil kasblarga qiziqish vujudga keladi. Ana shunday ikkilanishlar yuzaga kelgan vaziyatda kasbiy utanovkalar ijobiy samara beradi. Bunday ikkilanish oldini olish va bartaraf etish imkoniyatlari mavjud bo'lib, bu omillarni quyidagicha keltirish mumkin:

1. O'spirinlarda kasblarni o'rganish usullarini ishlab chiqish, ularni tasniflash va ifoda etish;
2. Amaliyotchi psixologlar va pedagoglar kasblar bo'yicha tashviqot ishlari olib borishi, o'spirinlarni kasbning asosiy turlari bilan tanishtirish;
3. Doimiy ravishda psixolog va ota – onalar bilan birga kasbga yo'naltirish bo'yicha hamkorlik o'rnatish;
4. Kasb tanlash usullarini amaliyotga tadbiq qilingan psixodiagnostik usullarini ishlab chiqish;
5. Kasbga yo'naltirish yuzasidan o'spirinlar orasida proferentatsiya, targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish kabilar.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'spirinlarni kasb tanlayotgan, kelajagini yaratayotgan davrda ularga alohida e'tibor berisi, imkon qadar ularning individual xususiyatlaridan kelib chiqib, kasbga yo'naltirishni talab etadi. Zero, o'spirinlar tanlagan kasblaridan kelajakda qoniqish hissini hosil qilishlari kasbiy samaradorlikni ta'minlashning 'uhimsharti hisoblanadi.

REFERENCES

1. Крутецкий В.А. Психология обучения И воспитания школьников. М. 1976.

3. Абдуллажанова Д.С., Д.Э.Ходжакулова Социально-психологические особенности развития инновационной активности личности в управлении. Global dunyoda psixologiya fani: nazariya va amaliyot, chaqiruvlar va istiqbollar Professor E.G'.G'oziyev xotirasiga bag'ishlangan Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami. 16 fevral 2022. – B. 82-86.
3. Ismailova, Z. K., & Baybaeva, M. X. (2020). Rahbarlarning nizoli vaziyatlarni hal etishda konfliktologik kompetentligini rivojlantirish. Life Sciences and Agriculture, (2-2), 185-188.